

BUXORO AMIRLIGIDA CHETGA CHIQISH UCHUN BERILGAN MA`LUMOTNOMALAR (PASSPORT) XUSUSIDA

Xalikova Nargiza Erkinovna

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi

xalikovanargiza7@gmail.ru

Annotatsiya: Maqolada Buxoro amirligida chet davlatlarga chiqish uchun berilgan pasportlar haqida ma`lumot berilgan. Muallif ma`lumotnomalarning kim tomonidan, qanday shaxslarga va qancha muddatga berilgani masalasini yoritib berishga harakat qilgan.

Kalit so`zlar: Buxoro amirligi, hujjatlar fondi, passport, bilet, qushbegi.

Аннотация: В статье представлена информация о паспортах, выдаваемых в Бухарском эмирата для выезда за границу. В статье автор пытался выяснить, кем выдавались паспорта, кому выдавали и на какой срок.

Ключевые слова: Бухарский эмират, документальный фонд, пасспорт, билет, кушбеки.

Abstract: The article provides information on passports issued in the Bukhara Emirate for traveling abroad. In the article, the author tried to find out who issued the passports, to whom and for how long.

Keywords: Emirate of Bukhara, documentary fund, passport, ticket, kushbegi.

Tarixdan ma`lumki, Buxoro amirligi O'rta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari o'rnatgan. Buxoro amirligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshg'ar bilan yaqin savdo munosabatlariiga kirishgan. Buxoro Koshg'ar bilan

to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O‘rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Buxoro karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qoshg‘ar, Qo‘qon va Xiva xonliklari, Afg‘oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar to‘plangan. Shu o‘rinda bir savol tug`iladi Buxoro amirligi fuqarolariga Rossiya va amirlikdan chet davlatlarga chiqish uchun biror hujjat berilganmi? Agarda biror hujjat berilgan bo`lsa qancha muddatga berilgan va kimlar tomonidan berilgan degan savollar tug`ilishi tabiiy. Ushbu savollarga javobni Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi “Hujjatlar fondi”da saqlanayotgan birqancha fond hujjatlari yordamida topishga harakat qildik. Muzey-qo`riqxona fondida 10914/11, 10915/11, 13732/11, 32024/11, 19326/11... inventar raqamlari ostida saqlanayotgan hujjatlarga e`tibor qaratsak, ular Buxoro amirligi tomonidan chetga chiqish uchun berilgan passport, biletlar va shu kabi yozma to`ldirilgan chipta namunalarini tashkil etadi.

10915/11² inventar raqami ostidagi hujjatlar passport, biletlardan iborat bo`lib, ular 1302-1327 h.y/1889-1906 yillarda amirlik hukumati tomonidan ma`lum bir shaxslarga Rossiya va chet davlatlarga chiqish uchun berilgan. Ushbu hujjatlar 1972-yilda Muzeyning inventar kitobiga kiritilgan. 10915/11 inventar raqami ostida qayd qilingan hujjatlarning umumiyligi soni 14 dona. «Бильтъ» nomli ushbu hujjatlarda chet davlatga chiqayotgan shaxsning umumiyligi ko`rinishi, yashash manzili va nima maqsadda boshqa davlatga chiqayotgani sababi ko`rsatilgan bo`limlari mavjud bo`lib, hujjat berilayotgan shaxs (agarda u savodsiz bo`lsa hujjat berayotgan tomon) ushbu bo`limlarni to`ldirishi kerak bo`lgan. Mazkur Hujjatlar ko`rinishi va tuzilishi jihatidan birbiridan farq qiladi. Bu kabi hujjatlarning bir tomoni eski rus yozuvida boshqa tomoni forsiyda yozilgan. Ayrim hujjatlar esa (asosan “passport” nomli hujjatlar) to`lig`icha eski rus yozuvida yozilib hujjatning orqa tomonida forsiyda qisqa qilib, hujjat egasining ism sharifi va hujjat berilgan sanalar mazmunidagi yozuvlar uchraydi.

² Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №7

Amirlik hukumati tomonidan berilgan passport yoki ruhsatnomalarning amal qilish muddati ham bo`lgan va tabiiyki muddati o`tgan passport, biletlar o`z ahamiyatini yo`qotgan. Odatda ruhsatnomalarning muddati olti oy yoki bir yil bo`lgan. Asosan bunday ruhsatnomalarga savdogarlarning yoki haj ziyoratiga ketmoqchi bo`lgan shaxslarning ehtiyoji bo`lgan. Amirlik fuqarolariga ruhsatnomalar berilishida amirlik qushbegisi asosiy rol o`ynagan. Aynan unga chetga chiqish uchun bilet yoki passport so`rab murojaat qilishgan va chetga chiqish passportlarida rus siyosiy agenti (полит. агент) imzosi bilan birga qushbegining muhri ham bo`lishi kerak bo`lgan.

10914/11³ inventar raqamli hujjat mazmuni amaldorlarning chetga chiqish uchun ruhsatnomasi yoki passport so`rab qushbegi nomiga yozgan murojaatnomasidan iborat. Ushbu hujjat 1322 h.y/1908 yilda yozilgan.

Hujjatlarda ruhsatnomasi egasining ism sharifi keltirilib, passport, biletlar uchun to`lov ham bo`lgan. 1983-yilda muzeyda ro`yxatga olingan quyidagi 19326/11⁴ raqamli hujjat mazmuniga ko`ra 1913-yil 20-avgustda Buxoro fuqarosi Mullo Fazliddin Xusenovga Rossiya va chetga chiqish uchun berilgan ruhsatnomadir. Ruhsatnomasi bir yil muddatga berilgan. Hujjatning pastki qismida “Buxoro hukumati foydasiga 90 tiyin olindi”- degan yozuvga ko`ra ushbu ruhsatnomalar shunchaki berilmasdan ma`lum bir to`lov evaziga berilganini ko`rishimiz mumkin. “Passport” nomli hujjatlar esa asosan bepul berilgan. Bunga 13732/11⁵ inventar raqamli hujjat misol bo`la oladi. Ushbu hujjatning markaziy qismiga “Passport” yozuvni yozilgan bo`lib, undan keyin hujjat egasining ism sharifi yozilgan. Uning pastki qismida esa hujjat egasining to`ldirilishi kerak bo`lgan birqancha bo`limlari mavjud: 1. e`tiqodi; 2. tug`ilgan yili yoki yoshi; 3. kasbi; 4. oilaviy ahvoli (uylangan yoki uylanmaganligi); 5. harbiy majburiyatni o`tashga munosabati va passport egasining imzosi. Undan tashqari, bo`yi, sochining rangi va muhim belgilari ham keltirib o`tilgan bo`lib ushbu band hujjat berilayotgan shaxs savodsiz bo`lgan taqdirda to`ldirilgan.


³ Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №7.Hujjatlar fondi.

⁴ Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №30.Hujjatlar fondi.

⁵ Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №28.Hujjatlar fondi.


Yuqorida ko`rib o`tgan hujjatlarimizdan hulosa qilib aytishimiz mumkinki amirlik fuqarolariga chet davlatlarga chiqishlari uchun amirlik fuqarosi ekanliklarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo`lgan. Barcha hujjatlar qushbegining muhri va rus siyosiy agentining imzosi bilan tasdiqlangan. Demak ushbu hujjatlar ma`lum bir muddat ularni Rossiya va boshqa davlatlarga bemalol kirib chiqishni ta`minlagan. Hujjatlarni o`rganish barobarida birqancha savollar ham yuzaga keladi: passport hujjatlarini berish amirlikda aynan qachondan boshlangan? Bu amirlik rus protektoratiga aylanganicha ham mavjud edimi? Passport ruhsatnomalarni berishning aniq bir talablari bo`lganmi? Amirlik tugatilgach hujjatlar qanday shaklda berilgan? .. bu kabi bir qator savollar hozircha javobsiz qolib, ushbu mavzu doirasidagi izlanishlarni davom ettirishga chorlamoqda.

Ilova.




1-rasm

2-rasm



3-rasm



Adabiyotlar ro`yxati.

1. Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №7.Hujjatlar fondi.
2. Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №30.Hujjatlar fondi.
3. Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi kirim kitobi №28.Hujjatlar fondi.
4. *Фаррух Темиров, Наргиза Халикова.* “Бухоро амирлигига ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан.” *Scientific progress 2.1* (2021): (pp. 1276-1282).
5. *Халикова Н. Э.* “Старые русские издания в фондах Бухарского музея важный источник для изучения истории Бухарского ханства.” *Молодой ученый.* (2020): 105-107.
6. *Халикова Н. Э.* “Отражение политических отношений Бухарского ханства с Российской империей в русских изданиях фонда Бухарского музея.” *Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах – важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии: сб. науч.* (2020): 238-244.